



## TUN VA TONG DIALEKTLARINING TARIXIY TARAQQIYOT BOSQICHLARIDAGI TAHLILI

*Toshqulova Zebiniso Baxriddin qizi*

*Termiz davlat pedagogika instituti Tillar fakulteti*

*O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tun hamda tong soʻzlarining maʼnolari, ularning tarixiy asarlarda qanday shaklda ishlatilganligi, ayrim tarixiy asarlaridagi ularning maʼno ottenkalari, shaxs nomlarida, makon-zamon nomlarini ifodalashda bu soʻzlardan foydalanilgan qismlarini yoritib berish asos qilib olingan. Bundan tashqari tun va tongning qismlarining nomlari bilan ham yoritishga, asarlarda ularning berilishiga ham toʻxtalgan.

**Kalit soʻz:** Tun, tong, shaxs nomi, maʼno ottenkalari, kunning qismlari, tunning qismlari, “Kultegin”, “Qudatgʻu bilig”, mifologiya.

Kunning qismlari sanalgan tun hamda tong dialekti adabiyot yaratilgandan buyon, yaʼni insoniyat ibtidoiy tarzda hayot kechira boshlaganidan buyon, oʻzini qurshab turgan dunyoning turli xil moʻjizalari va ofatlarini oʻrganishga harakat qilishi natijasidan paydo boʻlgan turli masaladagi mifologiyalarda ham namoyon boʻlgan desak mubolagʻa boʻlmaydi.

Vaqlar oʻtgani sayin insoniyat rivojlanib borganligi, adabiyot sanalmish buyuk soʻz sanʼatining ham rivojlanib kamol topib borganligiga guvoh boʻlamiz, endilikda insonlar oʻz soʻz sanʼatlarini adabiyotning ajralmas boʻlaklari boʻlmish turli janrlarda ham sinab koʻrishdi. Bu soʻzlar eng qadimgi sheʼrlardan tortib, dostonlarda ham oʻz ifodasini topgan. Davlatning humoyunlari sanalmish hukmdorlar, imperatorlar, shohlar-u malikalar aynan tong va tun konseptidagi turli xildagi moʻjiza va goʻzalliklarga qiyoslanib maqtalgan, qogʻozlarga muhrlanib qolgan. Bunday oʻxshatishlari-u qiyoshlashlarning vaqt oʻtgani sayin makon va zamonda semantik xususiyatlari oʻzgarib, sayqallanib brogan.

Bu borada oʻzbek va jahon adabiyoti vakillari oʻz asarlarida oʻzlarining mahoratlarini namoyon etib borganlar. Gapimizni qadimgi dunyo tarixi bilan boshlagan edik, bilaks, adabiyotning eng qadimgi janrlaridan biri sanalmish mifologiyada bu ikki tushuncha konflikt kuchlar tarzida ifodalangan. Ezgulik hamda yozuvlikning kurashi va unga hamisha ezgulikning gʻalaba qozonishi qorongʻu tunning ortidan, yorugʻ kunning otishi bilan dalillangan. Davrlar oʻtishi bilan bu tushunchalar oʻzlarining maʼno qirralarini kengaytirib, boyitib brogan, albatta, buni Qalam egalari oʻzlarining tasavvur olamlari orqali yuzaga keltirganlar. Endi tun va tong hamda bu





soʻzlar bilan mahalliy aholi orasida bir xil maʼno anglatadigan kun va kecha soʻzlarining tarixiy koʻrinishi va taraqqiyot bosqichi haqida biroz toʻxtalsak.

Qadimgi turklarda kecha-kunduz quyoshning harakati, kun bilan tunning almashinuviga qarab oʻlchanadi. *Kečä-kündüz* deganimizning oʻzida bir kunning toʻliq yigirma toʻrt soati, Yerning oʻz oʻqi tevaragida toʻliq aylanib chiqish vaqti tushuniladi. Kecha-kunduz boshlab ikkiga boʻlinadi: *Kün – tün*. *Kün* ning ikki xil maʼnosi bor: “*Kun, Quyosh*” hamda “*kecha-kunduzning kunduzgi boʻlagi*”. Uning ikkinchi maʼnosi asli “*Quyosh*” maʼnosidan urchigan. Kecha-kunduzning kunduzgi boʻlagini *kün* deyishimizning boisi, Kunning yorugʻliq sohib turishi, kunning yorishishiga nisbatan olingan. [Turkiy tillar tarixi. Qosimjon Sodiqov. Oʻquv qoʻllanma. -Toshkent: 2009. 233-bet]

Demak, qadimgi turk astronomik oʻlchoviga koʻra kun hozirgiday yarim tundan (soat 24 dan oʻtib) boshlanmaydi. Yangi kun quyoshning koʻtarilishidan, kunning yorishishidan boshlanadi. Kunni qadimgi turkiy tilda *kündüz / küntüz* ham deyiladi. Bu ham *kün* (*kun, yorigʻliq*) soʻzidan yasalgan. Solishtiring: *yulduz* – “*yorigʻliq sochuvchi*” degani. *Tün* soʻzining sinonimi *kečä* boʻladi. [Turkiy tillar tarixi. Qosimjon Sodiqov. Oʻquv qoʻllanma. -Toshkent: 2009. 242-bet]

Hozirgi kunda adabiy tilda tong, azon, subh, subhidam, sahar kabi bir qator soʻzlar kunning erta boshlanish qismi sanaladi. Bular ishlatilishi bilan kunning bir necha qismlarini ifodalaydi. Shu bilan birga adabiyotlarda, lugʻatlarda ham subhning ikki qismga boʻlinishini koʻrishimiz mumkin. Bular: subhi kozzib va subhi sodiq sanaladi. Ilm-fanda subhi kozzib va subhi soddiq oʻrtasidagi vaqt aniqlab boʻlmas darajada qisqa deb aniqlangan.

Mumtoz adabiyot vakillari ijodida bu ikki soʻzning ham mahurat bilan qalamga olganliklarini koʻramiz. Qoraxoniylar davri adabiyoti vakillari sanlamish Mahmud Koshgʻariy, (Turkshunoslik ilmining asoschisi boʻlgan mashhur olim Mahmud Koshgʻariy oʻzining “Devonu lugʻotit turk” (1071-1072) kitobida Alp soʻzini quyidagicha izohlaydi: “Alp – botir, qahramon”. Soʻngra kitobda Alp Er Toʻnga haqidagi mashhur marsiya keladi.[ Mahmud Koshgʻariy. Devonu lugʻotit turk. Uch tomlik. 1-tom. S.M.Mutallibov tarjimai. –T.: OʻzSSR FA nashriyoti, 1960. 77-bet.]

Toʻnga (tonga) soʻzi esa devonda quyidagicha izohlanadi: “Tona – yoʻlbars jinsidan boʻlgan bir xil hayvon. U filning kushandasidir. Bu soʻzning asosiy maʼnosi shudir. Lekin bu soʻz turklarda maʼnosi oʻzgargan holda qoʻllanadi. Bu soʻz, koʻpincha, odamlarga laqab oʻrnida ishlatiladi. Adibning mana shu qahramonini tariflashda ham tun leksemasidan unumli foydalangan, biz esa birini misol qilib keltirmoqchimiz.

Qanda erinch qaniqu,  
Emdi oʻzun urgʻurur





[Qayda ekan sevgiliv,

*Kechalari yo‘q uyqu*]. [Mahmud Koshg‘ariy. Devonu lug‘otit turk. Uch tomlik. 1-tom. S.M.Mutallibov tarjimasini. –T.: O‘zSSR FA nashriyoti, 1960. 332-bet.]

Bundan tashqari bizning tariximiz haqida ma‘lumot beruvchi ko‘k turk bitigi ham mavjud bo‘lib unda siz, qadimgi turkey tilga tegishli bo‘lgan ko‘plab so‘z shakllari bilan tanishib chiqishingiz mumkin. “Ko‘k turk” bitigidagi tun so‘zining ayrim shakllari bilan tanishar ekansiz hozirgi kun shakli bilan u qadar farqlanmasligiga farqlar faqat harflar yozilishida bor ekanligiga guvoh bo‘lasiz.

**Mahmud Ko‘shg‘ariy o‘zining “Devoni lug‘otit turk” asarida quyidagi misolni keltirib o‘tgan: tünlä keldim – tunda keldim.**

**Ko‘k turk bitiglarida: Äkinti kün kälti, örtčä qüzip kälti. – Ikkinchi kun keldi, yong‘inday qizib keldi (Ton.40). ko‘rinib turibdiki, ikki keltirilgan misolda ham shakl bir xillikni tashkil etadi.**

Yusuf Hos Hojib o‘zining “Qutadg‘u bilig” [Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig //Qadimiy hikmatlar. Tuzuvchi: N.Rahmonov. –T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1987. 100-bet.] (Fitrat ushbu asarni “Baxtliklanish bilimi” deb tarjima qilgan) asarining bosh qahramonlari sanalmish Kuntug‘di va Oyto‘ldi nomlari zamirida ham bu ikki konseptga tegishli bo‘lgan hislatlar asar qahramonlariga fazilat tarzida ko‘chma ma‘noda qo‘llangan. Kunning yorug, iliq, nurli bo‘lishini yer yuzidagi barcha mavjudot-u mahluqotlarga bir xil tarzda ta‘minlaguvchi Quyoshning vazifalari Kuntug‘di obraziga ko‘chiriladi, bu narsa nafaqat obrazga, balki uning nomiga ham moslashtirilgan.

Kunning vaqt birligi sifatida *ertä, keč* so‘zlari ham qo‘llaniladi. Bular aslida, kunduzning vaqtini emas, zamoni bildirgan. Kunning vaqti sifatidagi ma‘nosi ana shuning asosida yuzaga kelgan. *Ertä* so‘zining ilk lug‘aviy ma‘nosi “*bo‘lib o‘tgan, burungi*” degani, *ertäk* so‘zi ham shundan. Yoki *ertäki* deydi, bu “*o‘tgan zamonga oid, burungi, ilk*” degani. [Turkiy tillar tarixi. Qosimjon Sodiqov. O‘quv qo‘llanma. - Toshkent: 2009. 245-bet]

*Ertä* so‘zi kunning vaqt birligi sifatida “*tong*”ni bildiradi. Muhimi shundaki, so‘zning har ikkala ma‘nosi tilimizda yonma-yon qo‘llaniladi: *ertä tañ* deganda “*tongning boshlanishi*” yoki *ertä* keldi deganda “*vaqtning boshlanish paytida, hatto undan ham ilgariroq keldi*” deb tushuniladi. [Turkiy tillar tarixi. Qosimjon Sodiqov. O‘quv qo‘llanma. -Toshkent: 2009. 246-bet]

Hozirgi o‘zbek tilidagi *ertäläb* so‘zi ham shundan yasalgan (*ertä-lä-b*): “*erta bilan*” degan ma‘noni bildiradi. Hozirgi o‘zbek tilidagi *ertäläb* so‘zi ham shundan yasalgan (*ertä-lä-b*): “*erta bilan*” degan ma‘noni bildiradi [Turkiy tillar tarixi. Qosimjon Sodiqov. O‘quv qo‘llanma. -Toshkent: 2009. 247-bet]. *Keč* so‘zining ham





ilk ma'nosi "*kechgan, bo'lib o'tgan*" degani. *Keçki söz* deydi, bu "burungi so'z, qadimgi masal, hikmat" degani. Bu so'z kunning vaqt birligi sifatida "kechib o'tilgan, tugagan" ma'nosini bildiradi. Hozirgi o'zbek tilida u "kunning keçki pallasi", "zamonning oxiri" ma'nosida ham yonma-yon qo'llanilaveradi: keç keldi deganda "muddati tugash chog'ida, hatto muddatidan keyin keldi" deb tushuniladi. [Turkiy tillar tarixi. Qosimjon Sodiqov. O'quv qo'llanma. -Toshkent: 2009. 247-bet]

*Keçqurun* so'zi ham shundan yasalgan: *keç-qur-un*. Qur so'zida "*qorong'i*" ma'nosi bor, -un – tarixan vosita kelishigi. Hozirgi turk tilida kecha-kunduz bilan bog'liq vaqtlar shunday ataladi: *imsaq – sahar, bomdod vaqti, güneş – kun chiqishi, öğle – tush payti, ikindi – kunning ikkinchi yarmi*, tush bilan keçki payt oralig'idagi vaqt, nomozga nisbatan kunning ikkinchi yarmida o'qiladigan asr nomozi vaqti, *aqşam – oqshom, shom, yatsi – yotar payt, gecä – kecha, gecä yarisi – yarim tun*. [Turkiy tillar tarixi. Qosimjon Sodiqov. O'quv qo'llanma. -Toshkent: 2009. 248-bet]

Xulosa qilib shuni aytamizki, tun va tong dialekti tarixiy bosqichlar davrida o'zining shakl-shamoyili qisman o'zgartirgan bo'lsa ham, (bu aytim harflar o'zgaruvidan iborat) o'zining ma'no ottenkasini saqlab qolgan. Bundan tashqari bu ikki so'z mumtoz adabiyotda oshiq mashuqasinining jamolini ta'rif etishda, uning sochlari, ko'z-u qoshlarini tasvirlashda tun qorong'uligidagi sirlilik va mo'jizalilikga qiyoslashda foydalanilgan. Tun insonni turli his-tuyg'ulari, emotsiyalarini uyg'otib, uni turli xildagi o'ylovlarga g'arq qilganiday, oshiq ham yor ishida, uning husni, ohayollari og'ushida shunchalar taslim bo'lishini tunning tasviridan foydalanadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Turkiy tillar tarixi. Qosimjon Sodiqov. O'quv qo'llanma. -Toshkent: 2009.
2. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig //Qadimiy hikmatlar. Tuzuvchi: N.Rahmonov. –T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1987.
3. Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'otit turk. Uch tomlik. 1-tom. S.M.Mutallibov tarjimasini. –T.: O'zSSR FA nashriyoti, 1960.
4. Toshqulova Zebiniso. (2024). TUN VA TONG OBRAZINING TARIXIY DAVRLARGA XOS NAMOYON BO'LISHI . *Uz Conferences*, 2(4), 413–417.
5. Xudoyberdiyeva Dinara, Hamidova Nodira, & Toshqulova Zebiniso. (2024). BADIY MATNDA RANG-TUS SIFATLARINING USLUBIY VOQELANISHI . *Uz Conferences*, 2(4), 209–213.
6. Узбек тилининг тарихий лексикаси. Тошкент: Фан, 1972

